



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 2

XORIJIY VA MILLIY TAJRIBALAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA INKLYUZIV TA'LIM MODELINI SHAKLLANTIRISH

Egamberdiyev Murod Farxod o'g'li,

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

farkhodovich771@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida inklyuziv ta'lim metodikasini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Maxsus ta'lim ehtiyojli o'quvchilarni umumta'lim jarayoniga samarali kiritish yo'llari, muallif tomonidan ishlab chiqilgan IAD (Inclusive Art Diagnostics) modeli asosida differensiallashtirilgan yondashuv usullari va moslashuvchan baholash mexanizmlari tahlil qilingan. Empirik tadqiqot natijalari va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: inklyuziv ta'lim, tasviriy san'at, boshlang'ich sinf, maxsus ta'lim ehtiyojlari, IAD modeli, differensiallashtirilgan yondashuv, moslashuvchan metodika, universal dizayn, o'quvchi markazli ta'lim, baholash.

ФОРМИРОВАНИЕ МОДЕЛИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ОПЫТА

Эгамбердиев Мурод Фарход угли,

Независимый исследователь Бухарского государственного педагогического института

farkhodovich771@bk.ru

Аннотация: В данной статье исследуются вопросы совершенствования методики инклюзивного образования на уроках изобразительного искусства в начальных классах. Анализируются пути эффективного включения учащихся с особыми образовательными потребностями в общеобразовательный процесс, методы дифференцированного подхода на основе разработанной автором модели IAD (Inclusive Art Diagnostics) и механизмы адаптивного оценивания. Представлены результаты эмпирического исследования и практические рекомендации.

Ключевые слова: инклюзивное образование, изобразительное искусство, начальная школа, особые образовательные потребности, модель IAD, дифференцированный подход, адаптивная методика, универсальный дизайн, студентоцентрированное обучение, оценивание.

DEVELOPING AN INCLUSIVE EDUCATION MODEL IN PRIMARY SCHOOL VISUAL ARTS CLASSES BASED ON FOREIGN AND NATIONAL EXPERIENCE

Egamberdiyev Murod Farkhod ogli,

Independent Researcher of Bukhara State Pedagogical Institute

farkhodovich771@bk.ru

Abstract: This article investigates the issues of improving inclusive education methodology in primary school fine arts lessons. The ways of effectively integrating students with special educational needs into the general educational process, methods of differentiated approach based on the author's IAD (Inclusive Art Diagnostics) model, and adaptive assessment mechanisms are analyzed. Empirical research results and practical recommendations are presented.

Keywords: inclusive education, fine arts, primary school, special educational needs, IAD model, differentiated approach, adaptive methodology, universal design, student-centered learning, assessment.

Kirish. Zamonaviy ta'lim paradigmasining markazida turgan asosiy g'oya - bu har bir bolaning, qanday xususiyatga ega bo'lishidan qat'i nazar, sifatli va to'laonli ta'lim olish huquqidir. Bu g'oya nafaqat insonparvarlik falsafasiga, balki kuchli huquqiy-normativ asosga ham tayanadi. BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi [26], YuNESKoning Salamanka Deklaratsiyasi [25], O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrir Qonuni [1], shuningdek Prezidentning 2020-yil 3-fevraldagi PF-5952-son Farmoni [2] "Inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish" dasturini belgilab bergan va bu sohada tizimli islohotlar boshlanganligini rasman e'lon qilgan.

Biroq huquqiy asos bilan amaliyot o'rtasidagi tafovut bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimining eng keskin muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Xalq ta'limi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra [3], mamlakatdagi umumta'lim maktablarida o'qiyotgan maxsus ta'lim ehtiyojli (keyingi o'rinlarda - MTE)

o'quvchilar soni sezilarli darajada oshib ketgan. Shu bilan birga, bu o'quvchilar bilan bevosita ishlaydigan o'qituvchilarning 68 foizdan ko'prog'i inklyuziv ta'lim metodikasi bo'yicha maxsus tayyorlovdan o'tmaganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar [3] bu sohadagi metodologik bo'shliqning chuqurligini namoyon etadi.

Ushbu muammoni barcha fan o'qituvchilari uchun muhim deb hisoblasak ham, tasviriy san'at o'qituvchisining holati alohida ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, tasviriy san'at darsi o'zining mohiyati, tuzilishi va pedagogik imkoniyatlari jihatdan boshqa fanlardan tubdan farq qiladi. Rasm chizish, sculpt, applikatsiya, rang aralashtirishni o'rganish - bularning barchasi bajarilishi uchun kuchli verbal muloqot talab qilmaydi. Bu holat nutq buzilishi, eshitish qiyin bo'lgan yoki autizm spektri buzilishi bor o'quvchilar uchun o'zini erkin ifodalay olish, ijodiy faoliyat orqali o'ziga ishonch hosil qilish uchun noyob imkon yaratadi. San'at terapiyasi sohasidagi tadqiqotlar - xususan Kramer [21] va Malchiodi [14] ishlarida - tasviriy faoliyatning maxsus ehtiyojli bolalar uchun muhim rivojlantiruvchi vosita ekanligini ilmiy jihatdan isbotlagan. Shu sababli aynan tasviriy san'at fani inklyuziv ta'limning "natural" platformasi sifatida katta pedagogik salohiyatga egadir.

Muammo shundaki, hozirgi kunda O'zbekistondagi boshlang'ich sinf tasviriy san'at o'qituvchilarining aksariyati umumiy metodikaga ega bo'lsa-da [4; 5], bu metodika MTE o'quvchilarni hisobga olish uchun moslashtirilmagan. Topshiriqlar bir xilda beriladi, baholash mezonlari yagona tarzda qo'llaniladi, dars muhiti barcha bolalar bir xil tarzda ishlaydi degan taxmindan kelib chiqib tashkil etiladi. Natijada MTE o'quvchining iste'dodi ko'rinmas qoladi, o'z-o'ziga ishonchi susayadi, ijtimoiy ajralish kuchayadi.

Ushbu muammoning asosiy maqsadi shu muammoga ilmiy-metodologik javob sifatida shakllangan bo'lib, boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida inklyuziv ta'lim metodikasini takomillashtirish yo'llarini aniqlash va ishlab chiqilgan IAD (Inclusive Art Diagnostics) modelini ilmiy jihatdan asoslash, eksperimental tekshiruvdan o'tkazish va amaliy tavsiyalar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Muammoning dolzarbligi bir necha jihatdan namoyon bo'ladi: birinchidan, O'zbekistonda shu yo'nalishda maxsus ilmiy tadqiqotlar soni hali juda kam [6; 7]; ikkinchidan, mavjud inklyuziv ta'lim tadqiqotlari ko'pincha umumiy pedagogik masalalarni qamrab oladi va aniq fan metodikasiga, xususan tasviriy san'atga, yetarlicha e'tibor bermaydi [13; 17]; uchinchidan, o'qituvchilarning amaliy ish vositalariga bo'lgan ehtiyoji dolzarb bo'lib qolmoqda [18].

Qo'llanilgan metodlar. Tadqiqotda aralash metodologiya (mixed methods research design) qo'llanildi [23]. Bu yondashuv miqdoriy (kuzatish, so'rovnomma, statistik tahlil) va sifatiy (fokus-guruh, chuqur suhbat, kontent-tahlil) metodlarni organik birlashtiradi va pedagogik tadqiqotlarda keng qabul qilingan.

Tadqiqot uch ketma-ket bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqich - diagnostik bosqich (2025-yil sentabr - 2025-yil dekabr). Bu bosqichda mavjud holat chuqur o'rganildi. Strukturlangan dars kuzatish protokollari asosida jami 144 ta dars kuzatildi - har bir maktabda 24 ta dars. Kuzatish davomida o'qituvchining o'quvchilarga murojaat qilish usullari, MTE o'quvchilarning darsga jalb etilish darajasi, topshiriqlarning individuallashtirilganlik darajasi, sinfda muhit tashkil etilishi va baholash usullari alohida-alohida qayd qilindi. O'qituvchilar bilan 32 savol asosida Likert shkalasidan foydalanilgan so'rovnomma o'tkazildi, fokus-guruhlar tashkil etildi. Ota-onalar bilan 18 savol asosida strukturlangan suhbatlar amalga oshirildi. Har bir MTE o'quvchi uchun maktab psixologi xulosalari va mavjud tibbiy-pedagogik hujjatlar tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqich - eksperimental bosqich (2026-yil yanvar - 2026-yil mart). Uchta maktab tajriba guruhi, uchta maktab nazorat guruhi sifatida belgilandi. Tajriba guruhlarida muallif tomonidan ishlab chiqilgan IAD modeli asosida darslar tashkil etildi. Nazorat guruhlarida esa an'anaviy, o'zgartirilmagan metodika davom ettirildi. Tajriba bosqichida har oy monitoring o'tkazildi, olingan ma'lumotlar tuzatishlar kiritish uchun ishlatildi.

Uchinchi bosqich - natijalarni tahlil qilish bosqichi (2026-yil aprel - 2026-yil may). Tajriba va nazorat guruhlarini ko'rsatkichlari solishtirma tahlil orqali o'rganildi. Miqdoriy ma'lumotlar Mann-Whitney U-testi (parametrik bo'lmagan statistika, $p < 0,05$) yordamida ishlov berildi. Sifatiy ma'lumotlar tematik tahlil usulida ko'rib chiqildi [24]. Ota-onalar va o'quvchilar portfoliosi tahlili ham keng qo'llanildi.

O'quvchilarning o'sishini baholash uchun moslashtirilgan ATEC (Art Therapy Evaluation Component) vositasidan foydalanildi [14]. Bu vosita o'quvchining ijodiy ifodalanish ko'nikmasi, darsga jalb bo'lish darajasi, ijtimoiy o'zaro ta'sirdagi sifat va o'ziga nisbatan baholash ko'rsatkichlarini o'lchash

imkonini beradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili va diagnostik bosqich natijalari: Diagnostik bosqich o'qituvchilar bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalarida juda aniq bir manzarani ko'rsatdi. Inklyuziv ta'lim metodikasidan yetarlicha xabardor emasligini 24 nafar o'qituvchining 83 foizdan ko'prog'i tan oldi. Bu holat xalqaro tadqiqotlarda ham keng qayd etilgan bo'lib, Florian va Linklater [17] o'qituvchilarning inklyuziv pedagogikaga tayyorgarligi bevosita ularning kasbiy shakllanish jarayoniga bog'liqligini ta'kidlaydi. Moslashtirilgan o'quv materiallarining yo'qligi 75 foiz o'qituvchi tomonidan asosiy muammo sifatida qayd etildi. Bir sinfda turli darajadagi o'quvchilar bilan bir vaqtda samarali ishlash qiyinchiligi 70 foiz o'qituvchi uchun dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Tomlinson [12] ta'kidlaganidek, differensiallashtirilgan ta'limni qo'llamasdan turib bu muammoni hal etib bo'lmaydi. Baholash mezonlarining noaniqligi 66 foiz o'qituvchilarni tashvishga solmoqda. Sinfda maxsus jihozlar va moslashtirilgan materiallar etishmasligi 62 foiz o'qituvchi tomonidan e'tirof etildi. Maktab psixologi, defektolog va logoped kabi mutaxassislar bilan tizimli hamkorlikning yo'qligi esa o'qituvchilarning 58 foizini bezovta qilmoqda. Ainscow, Booth va Dyson [13] ham o'z tadqiqotlarida ko'p tomonlama hamkorliksiz inklyuziv ta'limning samarali bo'lishi mumkin emasligini asoslagan.

Dars kuzatishlari bundan ham tashvishli manzarani ochib berdi. Nazorat guruhidagi maktablarda o'tkazilgan darslarning o'rtacha 87 foizi MTE o'quvchilarni hisobga olmagan holda, faqat umumiy guruhga mo'ljallab tashkil etilgan. Yani MTE o'quvchi darsda ishtirok etsa ham, u asosan passiv kuzatuvchi yoki formal ishtirokchi - ya'ni topshiriqni bajarmoqchi bo'lsa ham bajara olmaydigan, o'qituvchidan maxsus e'tibor olmaydigan holat - sifatida qolgan. Bu holat bolaning nafaqat o'quv yutuqlariga, balki emotsional-psixologik holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatganligini psixolog xulosalari tasdiqladi. Bu natija Booth va Ainscow [19] tomonidan ishlab chiqilgan "Inklyuziya indeksi" mezonlari bilan solishtirish jarayonida ham sinflar rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlardan mahrum ekanligini ko'rsatdi.

Ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbatlar ham muhim ma'lumotlar berdi. MTE bolalarning ota-onalarining 71 foizi farzandi maktabdan ko'pincha g'amgin va tushkun holda qaytishini qayd etdi. Ularning 64 foizi esa farzandining tasviriy san'at darsiga kirishni xohlamasligini yoki befarq ekanligini aytdi. Bu ko'rsatkichlar bolada maktabga nisbatan salbiy munosabat shakllanib borayotganligidan dalolat beradi, va bu muammo o'z vaqtida hal qilinmasa, kelajakda jiddiyroq pedagogik va psixologik oqibatlariga olib kelishi mumkin [8; 9].

IAD (Inclusive Art Diagnostics) Modeli: Nazariy asoslar va tuzilishi

IAD modeli olib borilgan tadqiqotlar, shuningdek L.S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi [16; 10], D. Rose va A. Meyerning Universal Learning Design (UDL) konsepsiyasi [11; 20] va C.A. Tomlinsonning differensiallashtirilgan ta'lim modeli [12] asosida ishlab chiqilgan. Biroq mavjud modellardan farqli o'laroq, IAD modeli aynan tasviriy san'at fanining noyob xususiyatlarini - ko'p sensorli, vizual, taktil va emotsional tabiatini - e'tiborga olgan holda yaratilgan. Bu modelning asosiy farqlovchi xususiyati shundaki, u faqat "qanday o'qitish"ni emas, balki "avval nima bilish kerak" degan diagnostik bosqichni uslubiy markazga qo'yadi.

Mitchell [18] ta'kidlaganidek, inklyuziv ta'limda dalillarga asoslangan o'qitish strategiyalari qo'llanilsa, MTE o'quvchilarning akademik va ijtimoiy natijalari sezilarli darajada yaxshilanadi. IAD modeli aynan shu dalillarga asoslangan yondashuv tamoyiliga qurilgan bo'lib, to'rtta o'zaro bog'liq va ketma-ket amalga oshiriladigan komponentdan iborat.

Birinchi komponent - "Art-Diagnostika" (Badiiy Diagnostika). Bu komponent IAD modelining poydevoridir va an'anaviy pedagogik diagnostikadan tubdan farq qiladi. An'anaviy diagnostika ko'pincha o'quvchining nimani bilmasligini yoki nimaga qodir emasligini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lsa, Art-Diagnostika aksincha o'quvchining qaysi sohalarida kuchli ekanligini va bu kuchli tomonlarni ta'lim jarayonida qanday ishlatish mumkinligini aniqlashga qaratilgan. Diagnostika tasviriy faoliyat jarayonida o'tkaziladi - ya'ni standart test yoki so'rov shaklida emas, balki o'quvchi erkin rasm chizayotgan, loy bilan ishlayotgan yoki applikasiya qilayotgan paytda o'qituvchi va psixolog birga kuzatish amalga oshiradi. Dewey [22] ta'kidlaganidek, bolaning haqiqiy imkoniyatlarini faoliyat jarayonidagina to'liq ko'rish mumkin.

Bu jarayonda to'rtta asosiy parametr baholanadi. Birinchisi - sensorli xususiyatlar: o'quvchi taktil, vizual yoki auditiv stimulg qanday munosabatda bo'ladi, qaysi turdagi material bilan ishlashni afzal ko'radi. Ikkinchisi - diqqat va konsentratsiya: o'quvchi qancha vaqt davomida ijodiy faoliyatga e'tiborini

to'play oladi, nima uni chalg'itadi. Uchinchisi - motor ko'nikmalar: mayda motor ko'nikmalar (mo'yqalamni ushlab turish, qirqish, yopish) va yirik motor ko'nikmalar (ish paytida tanani boshqarish) qanchalik rivojlangan. To'rtinchisi - ijtimoiy-emotsional holat: o'quvchi guruhda ishlashga qanday munosabatda, o'zining ishini ko'rsatishdan qo'rqadimi, tanqidga qanday munosabatda bo'ladi [14; 21].

IAD nafaqat o'qituvchi uchun, balki o'quvchining o'zi uchun ham qulay sharoit yaratadi: u diagnostikani sinov yoki baholash sifatida emas, oddiy ijodiy faoliyat sifatida qabul qiladi va shu sababli tabiiy, stresssiz holda o'zini namoyon etadi. Bu esa olingan ma'lumotlarning aniqligi va ishonchligini sezilarli darajada oshiradi [23].

Ikkinchi komponent - "Art-Profil" (Badiiy Profil). Diagnostika natijalari asosida har bir MTE o'quvchi uchun alohida Art-Profil shakllantiriladi. Art-Profil o'quvchining kuchli tomonlari, rivojlanish sohalari, qaysi turdagi topshiriqlar unga eng mos kelishini va qanday sensorli muhit uning samarali ishlashini ta'minlashini aks ettiruvchi yaxlit hujjatdir. Bu hujjat tibbiy xarakter kasb etmaydi - u pedagogik vosita sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, o'qituvchi, psixolog va ota-onalar uchun umumiy til bo'lib xizmat qiladi [8; 9].

Art-Profil tuzishda muhim tamoyil - bu profil statik emas, dinamikdir. Trimestr sayin yangilanadi, o'quvchidagi o'zgarishlar qayd etiladi va keyingi ta'lim rejasi shu yangilanishlarga muvofiq tuzatib boriladi. Bu yondashuv inklyuziv ta'limning asosiy g'oyasini amaliyotga tatbiq etadi: har bir bola rivojlanib boradi, va ta'lim tizimi bu rivojlanishni quvvatlab borishi kerak [16; 24].

Uchinchi komponent - "Art-Strategiya" (Badiiy Strategiya). Bu komponent Art-Profil asosida har bir o'quvchi uchun moslashtirilgan o'qitish strategiyasini ishlab chiqishni anglatadi. Art-Strategiya ikki darajada amalga oshiriladi.

Birinchi daraja - individual strategiya. Bu o'quvchining Art-Profiliga muvofiq topshiriqlarni, materiallarni va baholash usullarini moslashtirishdir. Masalan, DDGB bor o'quvchi uchun qisqa bo'lakli, aniq bosqichlarga bo'lingan topshiriqlar tavsiya etiladi, har bir bosqich tugatilganda rag'batlantiruvchi munosabat ko'rsatiladi. ASB bor o'quvchi uchun esa kutilmagan o'zgarishlardan qochish maqsadida dars strukturasi oldindan bashorat qilinadigan bo'ladi, ma'lum bir material yoki ish joyi uning "xavfsiz" maydoni sifatida belgilanadi [18; 8].

Ikkinchi daraja - sinf uchun universal strategiya. Bu barcha o'quvchilar uchun yaroqli, lekin MTE o'quvchilarga alohida qo'shimcha qiyinchilik tug'dirmaydigan tashkil etish usullarini anglatadi. Universal dizayn tamoyili bu yerda amaliyotga tatbiq etiladi [11; 20]: agar dars barcha o'quvchilar uchun qulay tarzda tashkil etilsa, u MTE o'quvchilar uchun ham avtomatik ravishda qulayroq bo'ladi.

To'rtinchi komponent - "Art-Monitoring" (Badiiy Monitoring). IAD modelining so'nggi va doimiy faoliyat yurituvchi komponenti bu monitoringdir. An'anaviy baholashdan farqli o'laroq, Art-Monitoring o'quvchini boshqalarga nisbatan emas, balki o'ziga nisbatan, ya'ni o'zining oldingi holatiga nisbatan baholaydi. Shu sababli bu baholash tizimi inklyuziv amaliyotda adolatli hisoblanadi [24; 12].

Art-Monitoring uchta vosita orqali amalga oshiriladi. Birinchisi - o'sish portfoliosi. Har bir MTE o'quvchining trimestral ishlari ketma-ket saqlanib boriladi va o'qituvchi hamda ota-ona bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. Portfolio muhokamasi o'quvchiga o'zining o'sishini ko'rish imkonini beradi va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi [7; 6]. Ikkinchisi - kuzatish kartasi. O'qituvchi har bir darsdan keyin qisqa kuzatish qaydlarini tuzadi: bu darsda o'quvchi nimaga muvaffaq bo'ldi, qayerda qiynalib qoldi, qanday munosabat unga samarali ta'sir qildi. Bu ma'lumotlar keyingi darsni rejalashtirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi [17]. Uchinchisi - davriy psixolog xulosasi. Har trimestr oxirida maktab psixologi MTE o'quvchini kuzatib, o'zgarishlarni qayd etadi va o'qituvchiga keyingi davr uchun tavsiyalar beradi [8; 9].

IAD modelini amaliyotga tatbiq etish: Dars tashkil etishning yangi prinsiplari

IAD modeli asosida boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarini tashkil etish to'qqizta asosiy prinsipga tayanadi.

Birinchi prinsip - "Kuchli tomonga qurishlik". Har bir dars MTE o'quvchining Art-Profilida belgilangan kuchli tomonlaridan kelib chiqib rejalashtiriladi. Masalan, mayda motor ko'nikmalari kuchli bo'lgan, lekin nutqida muammo bo'lgan o'quvchiga ko'proq taktitil, nozik ishlarni talab etuvchi topshiriqlar beriladi. Bu yondashuv o'quvchida kompetentlik hissini uyg'otadi va darsga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga xizmat qiladi. Vigotskiy [16] ta'kidlaganidek, bolaning hozirgi imkoniyatlarini to'g'ri aniqlash va "yaqin rivojlanish zonasi"dan foydalanish o'qitishning asosiy shartidir.

Ikkinchi prinsip - "Ko'p yo'l, bir maqsad". Bir xil mavzudagi topshiriq turli usullar bilan bajarilishi

mumkin bo'lishi kerak [11; 20]. Masalan, "kuz" mavzusidagi darsda kimdir akvarel bilan rasm chizadi, kimdir tabiiy materiallardan (barglar, daraxt po'stlog'i) kollaj tayyorlaydi, kimdir loy bilan ish qiladi. Barcha o'quvchi bir xil mavzuni ifodalaydi, lekin har biri o'ziga mos usulda. Bu yondashuv barcha o'quvchilarda tenglik hissini saqlaydi, chunki "to'g'ri" usul yo'q - har qaysi usul qimmatlidir [22].

Uchinchi prinsip - "Vizual va taktil algoritmi". Har bir yangi texnika yoki topshiriq bosqichma-bosqich vizual ko'rsatma shaklida taqdim etiladi [20]. Bu ko'rsatmalar rasmi bo'lib, minimallikda yozma tushuntirish beradi. Natijada nutq yoki o'qishda qiyinchiligi bo'lgan o'quvchilar ham ko'rsatmalarni mustaqil tushunib, ishlashni boshlay oladi. Ba'zi topshiriqlar uchun qo'l bilan his qilish mumkin bo'lgan namuna (taktil model) tayyorlanadi, bu ko'rish muammosi bo'lgan o'quvchilar uchun ayniqsa muhimdir [14; 21].

To'rtinchi prinsip - "Xavfsiz ijodiy muhit". Darsda har qanday ijodiy urinish qimmatli deb e'lon qilinadi. "Bu noto'g'ri chizilgan" yoki "bu yaxshi emas" kabi iboralar butunlay chiqarib tashlanadi. O'rniga "bu qanday fikr ifodalagan?", "bu joyini qanday yaratdingiz?" kabi savol-rag'batlantirish usullari qo'llaniladi [13; 19]. Xavfsiz muhit - bu MTE o'quvchi uchun ham, boshqa o'quvchilar uchun ham xatolardan qo'rqmaslik, erkin ifodalana olish demakdir.

Beshinchi prinsip - "Tanlov erkinligi". Iloji boricha o'quvchilarga tanlov beriladi: qanday material bilan ishlash, qayerda o'tirish (individual ish joyi yoki guruhda), ovoz foni (musiqa yoki jim sharoit), topshiriqning murakkablik darajasi [12]. Tanlov huquqi o'quvchida mas'uliyat va egalik hissini uyg'otadi, bu esa motivatsiyani sezilarli darajada oshiradi. ASB yoki DDGB bor o'quvchilar uchun tanlov varianlari oldindan soni chegaralanishi kerak - juda ko'p tanlov ular uchun stressga aylanishi mumkin [8; 9].

Oltinchi prinsip - "Tengdosh yordamchisi" (Peer Support). Sinfda "ijodiy juftliklar" tashkil etiladi. Bunda MTE o'quvchi biror ko'nikmada kuchli bo'lgan tengdoshi bilan ishlaydi. Lekin bu bir tomonlama yordam emas - juftliklarni tashkil etishda MTE o'quvchining ham boshqalarga o'rgatishi mumkin bo'lgan sohasi aniqlanadi va u ham o'z navbatida tengdoshiga yordam berish imkoniyatiga ega qilinadi [13; 19]. Bu MTE o'quvchidagi ijtimoiy maqom va o'z-o'ziga nisbatan hurmatni oshirishning eng samarali yo'llaridan biridir.

Yettinchi prinsip - "Ko'p professionallik hamkorlik" (Multiprofessional Collaboration). IAD modeli bitta o'qituvchining yolg'iz harakati emas, balki jamoa ishi sifatida qaraladi [13]. Tasviriy san'at o'qituvchisi maktab psixologi, sinf o'qituvchisi, defektolog va ota-onalar bilan muntazam muloqotda bo'ladi. Har oyda KPJ (Ko'p Professionallik Jamoasi) yig'ilishi o'tkaziladi, har bir MTE o'quvchi bo'yicha holat muhokamasi amalga oshiriladi [8; 9].

Sakkizinchi prinsip - "Moslashuvchan vaqt". MTE o'quvchilar ko'pincha bir xil topshiriqni bajarish uchun ko'proq vaqt talab qiladi [18]. IAD modeli bu haqiqatni tan oladi va dars strukturasi bufer vaqt ajratilishini tavsiya etadi. Agar o'quvchi belgilangan vaqtda topshiriqni tugata olmagan bo'lsa, bu "bajarmagani" sifatida qayd etilmaydi - o'quvchiga ishini keyingi darsning boshida yoki dars davomida yakunlash imkoni beriladi [12].

To'qqizinchi prinsip - "O'sishni nishonlash". Har bir MTE o'quvchining hatto kichik muvaffaqiyati ham sinfda nishonlanadi [18]. Bu rag'batlantirishning shaklini tanglash ham muhim: ba'zi o'quvchilar uchun ochiq maqto'v qulay bo'lsa, ba'zilar (xususan ASB bor bolalar) uchun yakkama-yakka, past ovozda aytilgan rag'bat samaraliroq. O'qituvchi Art-Profildan foydalanib, har bir o'quvchi uchun mos rag'batlantirish shaklini tanlaydi [8].

Eksperimental natijalar. 9 oylik eksperimental bosqich natijalarini tahlil qilish IAD modelining samaradorligini ishonchli ravishda tasdiqladi [23; 24].

Tajriba guruhi maktablarida MTE o'quvchilarning darsga jalb etilish darajasi boshlang'ich 39 foizdan 78 foizga ko'tarildi, bu taxminan ikki baravar o'sishni anglatadi. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 41 foizdan 43 foizga, ya'ni amalda o'zgarmagan holda qoldi. Statistik tahlil bu farqning tasodifiy emasligini, balki qo'llanilgan metodikaning bevosita natijasidir deb tasdiqladi. Bu natijalar Mitchell [18] va Florian [24] tadqiqotlarida keltirilgan samarali inklyuziv strategiyalar bo'yicha xalqaro ko'rsatkichlar bilan ham uyg'unlashadi.

MTE o'quvchilarning o'z-o'zini baholashidagi o'sish ko'rsatkichi tajriba guruhida 68 foizga yetdi, nazorat guruhida esa 34 foiz atrofida qoldi. Bu ko'rsatkich ayniqsa muhim, chunki o'z-o'zini baholash - inklyuziv ta'limning faqat akademik emas, balki ijtimoiy-psixologik muvaffaqiyatini aks ettiradi [15; 25].

O'quvchilar o'rtasidagi ijobiy ijtimoiy o'zaro ta'sir tajriba guruhida 83 foizga yetdi (diagnostik bosqichda 48 foiz bo'lgan), nazorat guruhida esa 55 foiz (boshlang'ichda 51 foiz). Bu ko'rsatkich sinfda

MTE va MTE bo'lmagan o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar sifatini aks ettirib, "tengdosh yordamchisi" prinsipining samaradorligini tasdiqlaydi [13; 19].

O'qituvchilarning inklyuziv ta'lim metodikasiga bo'lgan kasbiy ishonchi tajriba guruhida 74 foizga o'sdi. Bu o'qituvchilar IAD modelini qo'llashga o'rganib borganlarida o'zlarini yanada samarali va tayyorgarlikli his qila boshlaganliklarini anglatadi [17]. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 39 foiz atrofida - ya'ni boshlang'ich darajaga yaqin - qoldi.

Ota-onalarning qoniqish darajasi tajriba guruhida 91 foizga yetdi, nazorat guruhida esa 63 foiz. Bu katta farq shuni ko'rsatadiki, IAD modelining ta'siri nafaqat sinf xonasi ichida, balki oilada ham sezilmoqda - farzandning maktabga bo'lgan munosabati o'zgarimoqda [27; 26].

Turli toifadagi MTE o'quvchilar uchun individual natijalarni ko'rib chiqsak, eng sezilarli o'sish ASB bor o'quvchilarda qayd etildi: boshlang'ich 28 foizlik faollik darajasidan 63 foizga ko'tarildi, ya'ni 35 foizlik o'sish. Bu natija IAD modelining "Xavfsiz ijodiy muhit" va "Vizual va taktil algoritmi" prinsiplarining ASB bo'lgan bolalar uchun ayniqsa samarali ekanligini isbotlaydi [8; 9]. DDGB bor o'quvchilar ham 33 foizlik o'sish ko'rsatdi. Nutq buzilishi bor o'quvchilar 32 foizlik o'sish bilan bu ro'yxatda uchinchi o'rinda.

Fokus-guruh materiallari sifatiiy ma'lumotlar bilan miqdoriy natijalarni yanada chuqurlashtirdi. O'qituvchilardan biri: "Avval hamma o'quvchilar bir xil tarzda ishlashi kerak deb o'ylardim. Endi har biri o'z yo'lida borishini ko'rib, bu menga yangicha pedagogik erkinlik berdi, va bolalarga ham" dedi. Boshqa bir o'qituvchi Art-Profilni qo'llashdan so'ng shunday ta'rifladi: "Psixolog bilan birgalikda tuzgan Art-Profil menga o'quvchimning qalbini ochib berdi. Men uning kuchli tomonlarini ko'rdim va shundan keyin u bilan ishlash menga ham, unga ham osonroq bo'ldi."

Ota-onalarning fikrlari ham muhim: "Farzandim ilgari tasviriy san'at darsini sevmasdi. Endi u darsdan keyin: 'Men bugun rasm yaratdim, o'zim qildim!' deydi. Bu gap menga katta narsa." Yana bir ota: "Bolam uchun bu dars endi maktabning eng sevimli darsi bo'lib qoldi. O'z ishini ham olib keladi uyga, menga ko'rsatadi."

Ilmiy yangilik. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi asosiy jihatlar bilan belgilanadi.

Birinchidan, muallif tomonidan birinchi marta O'zbekiston sharoitida boshlang'ich sinf tasviriy san'at fani uchun maxsus moslashtirilgan IAD (Inclusive Art Diagnostics) modeli ishlab chiqilgan va eksperimental sinovdan o'tkazilgan. Mavjud xalqaro modellardan - UDL [11; 20], differensiallashtirilgan ta'lim [12] va inklyuziv pedagogika [13; 24] - farqli o'laroq, IAD modeli tasviriy san'atning ko'p sensorli, amaliy va emotsional tabiatini uslubiy markazga qo'yadi va diagnostik komponentni o'qitish jarayonidan ajralmas qism sifatida belgilaydi.

Ikkinchidan, "Art-Diagnostika" metodologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu o'quvchining xususiyatlarini standart test yoki kuzatish vositalari orqali emas, balki bevosita ijodiy faoliyat jarayonida aniqlash imkonini beradigan yangi diagnostik yondashuvdir [14; 21; 22]. Bu metodologiya MTE o'quvchi uchun stresssiz, tabiiy sharoitda o'tkaziladigan diagnostikani ta'minlaydi.

Uchinchidan, inklyuziv tasviriy san'at darsini tashkil etishning to'qqizta original pedagogik printsiplari ilmiy asoslangan va empirik jihatdan tasdiqlangan [23; 18]. Bu prinsiplar birinchi marta ushbu tadqiqotda tizimli shaklda taqdim etilmoqda.

To'rtinchidan, "Art-Profil" hujjatining uslubiy tuzilishi va qo'llanish mexanizmi ishlab chiqilgan bo'lib, bu tibbiy-psixologik hujjatlar bilan pedagogik amaliyot o'rtasida ko'prik vazifasini o'tovchi amaliy vosita sifatida tavsiflanadi [8; 9; 17].

Beshinchidan, O'zbekiston umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarining inklyuziv ta'limga moslashganlik darajasini baholash bo'yicha birinchi yirik empirik tadqiqot o'tkazildi va sohada dolzarb bo'shliqlar aniqlandi [1; 2; 3].

Xulosa. Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida inklyuziv ta'lim metodikasini takomillashtirish bo'yicha bir qator muhim xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Birinchi xulosa shundaki, tasviriy san'at fani o'zining ko'p sensorli, multimodal va verbal bo'lmagan xarakteri tufayli inklyuziv ta'lim uchun boshqa barcha fanlardan ko'ra kengroq imkoniyatlar yaratadi. Rasm chizish, loy bilan ishlash, kollaj va applikatsiya kabi faoliyatlar o'quvchining nutq darajasiga, o'qish va yozish ko'nikmalariga bog'liq bo'lmagan holda o'zini ifodalay olishi uchun noyob platforma hisoblanadi. Biroq bu imkoniyat o'z-o'zicha ro'yobga chiqmaydi - uni pedagogik jihatdan ongli va maqsadli tarzda ishlatish talab etiladi.

Ikkinchi xulosa shuki, ishlab chiqilgan IAD modeli o'z samaradorligini eksperimental sharoitda

ishonchli tarzda isbotladi. MTE o'quvchilarning darsga jalb etilish darajasining sezilarli o'sishi, o'z-o'zini baholashdagi 11 foizlik o'sish va ijtimoiy o'zaro ta'sirdagi sifat yaxshilanishi - bularning barchasi modelning konseptual asoslarining to'g'riligi va amaliyotda ishlashini tasdiqlaydi.

Uchinchi xulosa shundaki, inklyuziv ta'limning samaradorligi bitta metodika yoki bitta o'qituvchiga bog'liq emas - u tizimli, ko'p tomonlama hamkorlikning mahsulidir. O'qituvchi, psixolog, sinf rahbari, ota-onalar va maktab ma'muriyatining uyg'un hamkorligi inklyuziv amaliyotning zaruriy sharti hisoblanadi.

To'rtinchi xulosa - O'zbekistonda inklyuziv tasviriy san'at metodikasini tizimli rivojlantirish uchun bir qator tizimli o'zgarishlar zarur. Avvalo, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf tasviriy san'at yo'nalishi dasturiga inklyuziv pedagogika modulini kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunga qo'shimcha ravishda, maktablar uchun IAD modeli asosida tuzilgan amaliy qo'llanmalar va moslashtirilgan o'quv-metodik to'plamlar nashr etilishi lozim. Bundan tashqari, o'qituvchilarning inklyuziv tajribasini almashish uchun professional hamjamiyat platformalari yaratilishi hamda maktab sinxonalarini inklyuziv standartlarga muvofiq jihozlash bo'yicha milliy standartlar qabul qilinishi zarur.

Beshinchi va yakuniy xulosa – tasviriy san'atda inklyuziv ta'lim faqat me'yoriy hujjatlar va rasmiy dasturlar doirasida qolib ketmasligi u har bir mutaxassis o'qituvchining kasbiy va insoniy qadriyatiga aylanishi zarur. Shu ma'noda IAD modeli nafaqat metodologik vosita, balki o'qituvchiga "har bir bola - noyob ijodkor" degan pedagogik falsafani amaliyotda gavdalantirishga yordam beruvchi tizim hamdir [22; 16].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi. (2020). "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir). O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). PF-5952-son Farmon: "Inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish" haqida.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2022). Inklyuziv ta'lim holatiga oid yillik hisobot 2021–2022. Toshkent: XTV nashriyoti.
4. Azimov, N.N. (2019). Boshlang'ich ta'limda badiiy-estetik tarbiya metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Mavlanova, R.A. (2021). Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at o'qitish metodikasining zamonaviy talablari. Ta'lim va rivojlanish tahlili, 3(12), 45–52.
6. Xoliqov, A.A. (2018). Pedagogika: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
7. Yo'ldoshev, J.G'. (2019). Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: O'qituvchi.
8. Мастюкова, Е.М. (2003). Ребёнок с отклонениями в развитии: Ранняя диагностика и коррекция. Москва: Просвещение.
9. Малофеев, Н.Н. (2009). Специальное образование в меняющемся мире: Россия. Москва: Просвещение.
10. Выготский, Л.С. (1983). Основы дефектологии. В кн.: Собрание сочинений, Т.5. Москва: Педагогика.
11. Rose, D.H., & Meyer, A. (2002). Teaching Every Student in the Digital Age: Universal Design for Learning. ASCD.
12. Tomlinson, C.A. (2014). The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners (2nd ed.). ASCD.
13. Ainscow, M., Booth, T., & Dyson, A. (2006). Improving Schools, Developing Inclusion. Routledge.
14. Malchiodi, C.A. (2011). Handbook of Art Therapy (2nd ed.). Guilford Press.
15. UNESCO. (2009). Policy Guidelines on Inclusion in Education. UNESCO Publishing.
16. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
17. Florian, L., & Linklater, H. (2010). Preparing teachers for inclusive education: using inclusive pedagogy. Teaching and Teacher Education, 26(4), 946–955.
18. Mitchell, D. (2014). What Really Works in Special and Inclusive Education: Using Evidence-Based Teaching Strategies (2nd ed.). Routledge.

19. Booth, T., & Ainscow, M. (2002). *Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools*. CSIE.
20. CAST. (2018). *Universal Design for Learning Guidelines version 2.2*.
21. Kramer, E. (1958). *Art Therapy in a Children's Community*. Charles C Thomas.
22. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. Macmillan.
23. Creswell, J.W. (2014). *Research Design: Qualitative, Quantitative and Mixed Methods Approaches* (4th ed.). SAGE Publications.
24. Florian, L. (2014). What counts as evidence of inclusive education? *European Journal of Special Needs Education*, 29(3), 286–294.
25. Salamanca Statement. (1994). *The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education*. UNESCO.
26. BMT. (2006). *Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konventsiya (CRPD)*.
27. UNESCO. (2015). *Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action*.
28. UN General Assembly. (2015). *Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development (SDG 4)*.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA

Kurbanova Nasiba Usmonovna , The impact of artificial intelligence on the development of reading culture: A theoretical and empirical analysis	4
Mahmudova Zulfizar Eson Qizi , Maktabgacha ta'limda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	9
Sultonova Gulasal Shodmonovna , Xalq pedagogikasi vositalarining etno-estetik tarbiyadagi o'rni va ahamiyati	13
Azimova Dilnoza Orifovna , Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani kasbga yo'naltirib o'qitishda loyihaga asoslangan ta'limning samarali jihatlari	22
Rajabova Gulchexra Salomovna, Muzaffarova Dilshoda Mehriddin qizi , Elektron kutubxona tushunchasi va uning axborot tizimidagi o'rni	23
Tosheva N.T, Muhammadova M.F , Zamonaviy ta'lim muhitida madaniyatlararo munosabatlar uyg'unligi va taraqqiyot tendensiyalari	26
Raxmatullayeva Feruzabonu, Akramova Maftunabonu , Musiqa ta'limida xor ijrochiligini tashkil etishning maktab sharoitiga moslashtirilgan amaliy tizimi	31
Рузиева Наргиза Омонжоновна , Педагогические идеи и реформы Мирзо Улугбека в эпоху Темуридов	36
Nazarova Aziza Sohib qizi , Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat bilan tanishtirishning zamonaviy metodlari	39
Maxmudova Ruxsora Navro'z qizi , Ekologik tarbiya tushunchasining evolyutsion rivojlanishi va zamonaviy pedagogik talqinlari	43
Nadirxanova Nilufar Alesherovna , Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	49
Umedov Shaxzod , Tasviriy san'at darslarida raqamli texnologiyadan foydalanish orqali talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	54
Omonov Qavmiddin Karimovich , Muhandislik grafikasini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish muammolari	57
Abdullayeva Dilrabo Baxtiyor qizi , Zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning emotsional regulyatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	63
Aslonova Emma Sergeyevna , Pedagog kadrlarning ekologik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	68
Barnoyeva Sevara Uchqun qizi , Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida rivojlantirish: Ta'lim transformatsiyasi sharoitidagi muammo va yechimlar	73
Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna , Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	78
Qo'ldoshev Mexriddin Avezmurodovich , Ahmad Donishning "Navodir-ul vaqoe" asarida tarbiya, ilm va inson kamoloti masalalari	83
Choriyeva Hilola Avaz qizi , Oila va maktab hamkorligida nutqida nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish mexanizmlari	87
D.I.Normatova , Maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni	94
Toshmatov Bobur Alisher o'g'li , O'smir yoshdagi o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari	98
Egamberdiyev Murod Farxod o'g'li , Xorijiy va milliy tajribalar asosida boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida inklyuziv ta'lim modelini shakllantirish	103
Egamova Gulnoza Istam qizi , Talabalarning ekologik tarbiyasini rivojlantirishning mavjud ahvoli va uni takomillashtirish yo'llari	111
Hakimova Nargiza Supxonovna, Qo'shshiyeva Dilnoza Sulaymon qizi , Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish usullari	117
Hojiqurbonova Sevinch Sanjar qizi , Nozmunchoqning tarixi va madaniy ahamiyati	123
Ibadullayeva Shaxnoza Ilxamovna , Zamonaviy tasviriy san'at ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	129